

TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENTLI YONDASHUV VA SIFAT INDIKATORLARI
XATAMOV AZIZBEK YAXRAQULOVICH
Jizzax politexnika instituti
"Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedراس dotsenti v.b.
e-mail: xatamov1982@mail.ru
Tel: +998(95) 503-85-82
O'RAZALIYEV FAXRITDIN BAXRITDINOVICH
Jizzax Politexnika Instituti
"Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedراس assistenti
urazaliyev1969@mail.ru
Tel: +998(93) 303-69-74

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlari kompetentligining mazmun-mohiyati, uni belgilovchi ichki indikatorlar, shuningdek, ilg'or xorijiy indikatorlar sifatida Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat qilish Agentligining Qoidalar majmuasi va uning talablari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetentli yondashuv, innovatsion faoliyat, huquqiy kompetentlik, boshqaruv kompetentligi, axborot kompetentligi, kommunikativ kompetentlik, sifat qoidalari majmuasi, lokal normativ hujjatlar.

Аннотация: В статье представлена сущность компетенции руководящих кадров высших учебных заведений, свод правил Агентства Великобритании по контролю качества высшего образования и его требования в качестве внутреннего индикатора, а также передовые зарубежные индикаторы.

Ключевые слова: компетентный подход, инновационная деятельность, правовая компетентность, управленческая компетентность, информационная компетентность, коммуникативная компетентность, свод правил качества, локальные нормативные документы.


Annotation: The article presents the essence of the competence of managers of higher education institutions, the set of rules of the UK Agency for Quality Assurance in Higher Education and its requirements as an internal indicator, as well as advanced foreign indicators.

Keywords: competent approach, innovative activity, legal competence, managerial competence, information competence, communicative competence, a set of quality rules, local regulatory documents.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini takomillashtirish, ularga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish asosida ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, Oliy ta'lim muassasalarida mavjud muammolarining yechimini topish, ta'lim tizimini boshqarishning an'anaviy shakl va uslublariidan voz kechib, rahbarlarning boshqaruv faoliyatini demokratik tamoyillar va innovasion yondashuvlar asosida shakllantirishni taqozo etmoqda.

OTM rahbar xodimlarining ta'lim muassasida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda jamoada qulay ta'limiy muhitni shakllantirishi uchun ta'lim tizimini boshqarishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishi, boshqaruv jarayonida innovasion faoliyatni tashkil eta olishi zarur hisoblanadi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va ta'lim sifatini baholash jarayonida rahbarlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur: faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarini tanlash va



bajariladigan vazifalarni taqsimlash; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil etish; moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi ijtimoiy munosabatlarning uzluksiz aloqasini ta'minlash; ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborotlar texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlash; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish; ta'lim muassasasining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagog xodimlar va talabalar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish; ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; pedagog xodimlar rahbar tomonidan aniq axboriy ma'lumotga ega bo'lgan holda kompetentli, o'ziga munosib faoliyatga yo'naltirilishi lozim, bo'ysunuvidagi xodimlarning innovasion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovasion faoliyatni tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish [1].

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari quyidagi yo'nalishlarda kompetentlikka ega bo'lishi lozim.

Huquqiy kompetentlik – ta'limning normativ-xuquqiy hujjatlarini, qonunchilik normalarini bilish hamda boshqaruv faoliyatida samarali foydalana olish, lokal normativ-xuquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qonunchilik normalari doirasida qarorlar qabul qilish.


Boshqaruv kompetentligi – boshqaruv faoliyatidagi real vaziyatlarda uchraydigan boshqaruv muammo va vazifalarning samarali yechimini ta'minlaydigan metodik usullar, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, pedagogik-psixologik diagnostika (so'rov, individual va guruhli intervyu) texnologiyalari, samarali boshqaruv muloqotini tashkil eta bilish va doimiy takomillashtirib borish, jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratish, boshqaruv vaziyatlariga mos holda samarali uslublarni qo'llay olish, muzokaralar olib borishning pedagogik-psixologik jihatlaridan foydalana olish, vaqt menejmenti, kichik guruhlar va liderlar bilan munosabatni shakllantirish, boshqaruvda nazoratni takomillashtirish.

Axborot kompetentligi – rahbarning zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va boshqaruv faoliyati bilan bog'lik ma'lumot, axborotlarni izlash, tahlil qilish, baholash va zaruriy axborotlarni sohaga yo'naltirish, mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish, boshqaruv faoliyatini doimiy rivojlantirishdir.

Kommunikativ kompetentlik – ta'limni boshqarish jarayonida samarali muloqotni ta'minlash, turli xil kichik guruhlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, ularni boshqarish, gorizontal va vertikal kommunikasiya yo'nalishlarida samarali boshqaruv muloqotini tashkil etish, xorijiy xamkorlar bilan muloqotning etiketlarini saqlash, tolerantlik, muomalada yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lish, jamoada ijodiy rahbar imidjini shakllantirish, yozma fikrlarni muloqot jarayonida yetkaza olish, og'zaki fikrlarni yozma to'g'ri bayon qilish, jamoa oldida chiqish qilish odobini o'zlashtirish, samarali muzokaralar olib borish [2].

Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlariga qo'yiladigan malaka talablari quyidagicha belgilab berilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasiniig "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmonlari, qarorlari mohiyati va ularda belgilangan ustuvor yo'nalishlarni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi ta'lim-tarbiya masalalariga oid



g'oyalar mazmun-mohiyatini;

- Innovasion va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'limga oid qarorlarini;
- "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi

Qonunning mazmuni-mohiyatini;

- maxsus vakolatli davlat organlarining buyruqlari mazmunini;
- ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning xuquqiy asoslarini;
- tegishli ta'lim sohasi bo'yicha davlat ta'lim standarti talablarini;
- mehnat qonunchiligi, oliy ta'lim muassasasining Ustavi, jamoa shartnomasi mazmunini

bilishi;

– normativ-huquqiy hujjatlar asosida pedagogik faoliyat va o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish;

- lokal normativ hujjatlarni yaratish va ular bilan ishlash;
- shaxsiy o'quv yuklamalarning rejalashtirilishi va ularning tizimli bajarilishini nazorat

qilish;

– bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni sifatini ta'minlash va boshqarish;

– talabalar bilim, malaka va ko'nikmalarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini adolatli baholanishini nazorat qilish;

– normativ-xuquqiy hujjatlar asosida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish borasida ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak [3].

Bundan tashqari, Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat bo'yicha ta'lim jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli taxlil va qarorlar qabul qilish asoslari, shuningdek, maxsus fanlarni o'zlashtirgan, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan kompetentlik faoliyati komponentlari asosida ta'lim tizimi sifatini xorijiy tajribalarga asoslangan holda ta'lim sifatini baholashning quyidagi sifat indikatorlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Quyida ta'kidlab o'tilgan kompetentlik foaliyati komponentlari asosida ta'lim tizimi sifatini xorijiy tajribalarga asoslangan holda ta'lim sifatini baholashning quyidagi sifat indikatorlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.


Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat qilish Agentligining Koidalar majmuasi (Sifat koidalari majmuasi) oliy ta'lim tizimini sifatini nazorat qilish Agentligida ro'yxatdan o'tgan oliy ta'lim muassasalariga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimini sifatini nazorat qilish bo'yicha Agentlikning qoidalar Majmuasining maqsadi qo'yidagilardir:

- oliy ta'lim tizimiga qo'yiladigan yuqori akademik standartlarga mos kelish;
- oliy ta'lim muassasasi talabalarga berilayotgan ta'lim sifatini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimini uzluksiz va tizimli ravishda rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- oliy ta'lim muassasalari haqida to'liq ma'lumotning mavjudligini ta'minlash [4].

Ta'lim sifatini nazorat qilish xalqaro qoidalariga ko'ra ta'limda eng ko'p takrorlanadigan sifat indikatorlarini ta'lim sifatini baholash mezonlari sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir:

- dastur (talab va ehtiyojga javob beruvchi va yangilanib boruvchi) va o'quv jarayoni;



- xavfsiz, sogʻlom ichki va tashqi muhit;
- kasbiy rivojlanish imkoniyati (oʻqituvchi va talaba uchun);
- liderlik, samarali boshqaruv va maʼmuriyat.

Jarayonga asoslangan indikatorlar.

1. Boshqaruv jarayoni:

- boshqaruvning samaradorligi;
- boshqaruv, oʻqituvchi, ota-ona oʻrtasidagi oʻzaro hamjihatlik, maqsadni bir xil koʻra olish, vazifalar va rejalarini bajarishda umumiy xarakterlanish.

2. Talabalar uchun oʻsish va rivojlanish jarayoni [5]:

- yoʻl-yoʻriq va maslaxat berish;
- maʼnaviy va fuqarolik taʼlimi;
- talabalar tashkiloti (jamiyati, assosiasiyasi)ning mavjudligi;
- jamiyat xizmati.

3. Tashqi aloqa jarayoni:

- boshqa taʼlim muassasalari, taʼlim, biznes, jamiyat, davlat idoralari bilan taʼlim sifatini yaxshilash yoʻlida xamkorlik aloqalarining oʻrnatilganligi;

- ish beruvchi bilan aloqa.

4. Natijalarga erishish jarayoni (outcome process indicators):

- fuqarolik masʼuliyati va axloqiy (maʼnaviy) munosabat;
- sport va boshqa sohalarda ishtirok etish, muvaffaqiyatga erishish;
- ijtimoiy va kommunikasiya koʻnikmalari, taʼlim muassasasi va jamiyatga xizmat koʻrsatishga tayyorlik;

- bosim va muammolarni yenga olish qobiliyati;

- akademik muvaffaqiyat.

Kompetentli yondashuv doirasida taʼlim tizimini boshqarishda yuqoridagi sifat indikatorlari albatta eʼtiborga olinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Aynaqulov M.A., Siddiqov M.Yu. Kompetentli yondashuv doirasida taʼlim sifatini baholash / Ommabop qoʻllanma. – Jizzax: “Toshkent tezkor bosmaxonasi MChJ” – 2018. – 92 b.
2. Axlidinov R.Sh. Taʼlim muassasasini boshqarish sanʼati. – Toshkent: “Fan”, 2006. – 79 b.
3. Aynakulov M.A. Problems, prestiges of animation process and technique // Uz Academiya. scientific-methodical journal.issn (e)-2181-1334.vol 1, issue 2, august 2020. Jild-2.
4. B.N.Gapparov va boshqalar. “Xalq pedagogikasi”. “Tafakkur” nashriyoti. – Toshkent. 2009 yil.
5. B.N.Gapparov NamDU ilmiy axborotnomasi. 2022 yil. 3-son.

